
“Yoshlar kuni”ga bag’ishlab sport musobaqalari o’tkazildi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning iyun oyida poytaxtimizda o’tkazilgan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining ta’sis qurultoyida 30 iyunni «Yoshlar kuni» deb e’lon qilgan edi.

Shundan buyon har yili 30 iyun mamlakatimizda «Yoshlar kuni» sifatida keng nishonlanib, har bir viloyat, tuman va shaharlarda sport musobaqalari hamda ommaviy tadbirlar o’tkaziladi.

Bu yil pandemiya sababli «Yoshlar kuni»ni o’tkazish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqilgan. Unga ko’ra barcha tadbirlar karantin qoidalariga amal qilingan holda o’tkazilishi belgilangan.



Qo'shtepa tumanida 30 iyun - «Yoshlar kuni» munosabati bilan tuman hokimligi tashabbusi ostida, sport bo'limi va Yoshlar ittifoqi tuman kengashi bilan hamkorlikda sportning kichik futbol, stol tennisi, voleybol turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. Musobaqani tuman hokimi o'rinbosari A. Yusupov kirish so'zi bilan ochib, ishtirokchilarni bayram bilan tabrikladi va ularga omad tiladi.

Shundan so'ng sport musobaqalariga start berildi. Karantin qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazilgan musobaqalarda 100 nafardan ziyod yoshlar qatnashdi. Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakunida g'olib jamoalar tuman hokimligining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

2020-06-29 11:51:11